

LINGVISTIK TERMINLARNING O‘TMISHI VA ISTIQBOLI HISTORY AND PROSPECTS OF LINGUISTIC TERMS

Nurbeka Urazova

*O‘zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti
Samarqand, O‘zbekiston*

Аннотация: Жахон тилшунослигида лингвистик терминологиянинг пайдо булиши ва алоҳида терминологик қатлам сифатида шаклланишини антропоцентрик планда тадқиқ этиш, терминларнинг лингвистик тушунчани қай даражада ифодалашидан келиб чиқиб тартибга солиш борасида тадқиқотлар олиб борилмоқда. Шу маънода тилшуносликнинг ривожини билан янги терминларнинг пайдо булиши, терминлардаги синонимия, полисемия ва вариантликнинг юзага келиш сабабларини аниқлаш, узлашма терминларнинг миллий терминологик тизимга таъсирини очиқ бериш, мураккаб таркибли терминларнинг ҳосил булиши юзасидан аниқ хулосаларга келиш тилшуносликнинг долзарб вазифаларидан биридир.

Калит сўзлар: лингвистик терминлар, синтаксис, морфология, фонетика, лексикология, морфемика.

ПРОШЛОЕ И БУДУЩЕЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация: Проводится антропоцентрическое исследование возникновения лингвистической терминологии и ее формирования как отдельного терминологического пласта в области японского языкознания, а также регламентации терминов исходя из степени, в которой они выражают языковое понятие. В этом смысле появление новых терминов с развитием языкознания, выявление причин возникновения синонимии, полисемии и вариантов в терминах, выявление влияния терминов на национальную терминологическую систему, приход к точным выводам относительно образования терминов со сложным содержанием является одной из актуальных задач языкознания.

Ключевые слова: лингвистические термины, синтаксис, морфология, фонетика, лексикология, морфемика.

THE PAST AND FUTURE OF LINGUISTIC TERMS

Annotation: An anthropocentric study of the emergence of linguistic terminology and its formation as a separate terminological layer in the field of Japanese linguistics, as well as the regulation of terms based on the degree to which they express a linguistic concept, is carried out. In this sense, the emergence of new terms with the development of linguistics, identifying the causes of synonymy, polysemy and variants in terms,

identifying the influence of terms on the national terminological system, coming to accurate conclusions regarding the formation of terms with complex content is one of the urgent tasks of linguistics.

Key words: linguistic terms, syntax, morphology, phonetics, lexicology, morphemics.

O'zbek tilshunoslik terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarida o'zbek tilshunosligi nazariy asoslarining yaratilishi va uning terminlarda aks etishi, o'zbek tilshunoslik terminlarining taraqqiyot bosqichlari hamda o'rganilishi tadqiq qilingan. O'zbek tilshunoslik terminologiyasi o'rganilishi munosabati bilan lingvistik tushunchalar paydo bo'la boshladi va ular terminlarda aks eta boshladi. O'zbek tili bo'yicha tuzilgan ilk darsliklarni boshqa til vakillari yozganligi sababli ularda o'zbek tiliga xos hodisalar o'zga tillar qonuniyatlari asosida izohlangan hamda arab, tatar, turk va rus tillari grammatikalaridan foydalangan. O'zbek tilini ilmiy o'rganish Fitratning «Sarf» va «Nahv» asari va u boshchiligidagi «Chig'atoy gurungi» faoliyatidan boshlangan. Bu davrda ham tilshunoslik terminlari borasida bahslar bo'lgan. Ba'zi mutaxassislar arabcha, forsha va ruscha terminlarni qo'llash tarafdori bo'lsa, boshqalar bunday terminlarni o'zbekchalashtirishni yoqlaganlar. Ushbu masalaning yechimida Fitrat va Elbekning faoliyati alohida ahamiyatga ega.

Istiqlolgacha o'zbek tilidagi lingvistik terminlari asosan ruscha o'zlashmalar bo'lib, ularning o'zbekchalashtirilishiga e'tibor qaratilmagan edi. Bu turdagi terminlarning o'zbek tili leksik tizimidagi o'zni mavhum va tilning ob'ektiv rivojlanishi qonuniyatlariga muvofiq emas edi. Tilimizga davlat tili maqomining berilishi lingvistika sohasida ham ish yuritish, o'qish va o'qitish ishlarini o'zbek tilida yo'lga qo'yish zaruratini keltirib chiqardi. Biroq bu muammolar markazida turuvchi lingvistika sohasida termin tanlash va qo'llash masalasi nechog'lik dolzarb va ahamiyatga molik bo'lsa-da, hali tilshunoslikning e'tiboriga tushmagan edi. Lingvistika sohasida qo'llanilayotgan aksariyat atamalarning ruscha ekanligi, mavjud terminlarning esa, asosan, kalkalash asosida hosil qilinganligi, termindagi noaniqliklar, ayrim hollarda o'zbek tilida mukammal ifoda vositalari bo'lishiga qaramay, ruscha yoki rus tili orqali o'zlashgan terminlarning ko'plab qo'llanayotganligi, sohaga doir terminologik lug'atlarning mavjud emasligi lingvistik terminlarining til leksik tizimidagi o'zini aniqlash, semantik-struktur tuzilishini tadqiq qilish, terminlardagi variantlilik, ma'nodoshlik, ko'p ma'nolilik munosabatlariga oydinlik kiritish, leksikografik talqin qilish kabi qator muammolarni kun tartibiga qo'yadi. Jahon tilshunosligida terminologiya va uning nazariy asoslari, tilshunoslik terminlari va ularning shakllanishi, tartibga solinishi kabi masalalar G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, A.A.Reformatskiy, O.S.Axmanova, A.M.Shcherbak, V.Danilenko, A.N.Kononov,

E.A.Kolesnikova, V.M.Boguslavskiy singari olimlarning tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan. Ayni shunday masalalar, tilshunoslik terminosistemalarining shakllanishi va taraqqiyoti masalalari, tilshunoslik terminologiyalaridagi kamchilik va nuqsonlar, sinonimiya va uni bartaraf etish muammolari ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, chuvash kabi asosiy turkiy tillar hamda tojik tili terminologiyalarida ham tadqiq etilgan. O'zbek tilshunosligida esa X.Komilova, S.Fuzailov, A.T.G'ulomov, V.V.Reshetov, S.Nizomiddinova, A.Hojiev, L.V.Reshetova, D.Xudoyberganova va boshsalarning monografiya, dissertatsiya va lug'atlarida yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida tilshunoslik terminlarning shakllanishi va taraqqiyoti masalalari A.Nurmonov, S.Ashirboyev, E.Fozilov, A.R.Chichulina, L.Reshetova, M.Qurbonova, B.Tuychiboev, SH.Bobomurodova, T.Tog'aeu, K.Kadirov, J.Eltazarovlarning ishlarida tadqiq etilgan. Shunga qaramay, o'zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti bo'yicha yaxlit tadqiqot yaratilmagan. O'zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyotini umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darsliklari asosida monografik tarzda o'rganish terminologik tizimni mukammal va batafsil tasavvur etish imkoniyatini yaratadi.

O'zbek tilshunoslik terminologiyasida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar:

xx asr boshlarida o'zbek tilshunosligi nazariy asoslarining yaratilishi va uning terminlarda aks etishini o'rganish;

o'tgan asrning 30-yillarida darsliklar yaratish jarayonidagi dastlabki ilmiy tadqiqotlardagi muhim jihatlarni aniqlash;

ilk yaratilgan darslik va saboqliklarda qo'llangan tilshunoslik terminlarini aniqlab, ularni asoslash va izohlash;

tilshunoslik terminologiyasining shakllanish va taraqqiyot bosqichlarini tizimli o'rganish;

ona tili darsliklarining yaratilishi bilan tilshunoslik terminlar yuzaga kelishidagi chalkashliklarni aniqlash;

o'zbek tiliga arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan o'zlashtirilgan tilshunoslik terminlarini aniqlash va hozirgi bosqichdagi o'rnini oydinlashtirish;

tilshunoslik terminologiyasida sinonimiyaning vujudga kelish sabablarini va uni bartaraf etish tamoyillarini belgilash;

o'zbek tilshunoslik terminologiyasining umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yaratilgan darsliklardagi o'rnini belgilash kabilarni o'z ichiga oladi.

Har qanday fan tadqiqining asosiy vositasi bo'lgan terminlar va ularning lingvistik tabiati, yuzaga kelish manbalari, yasalish usullari, terminlarning tuzilishiga ko'ra turlari, ulardagi sinonimlik va dubletlikni bartaraf qilish yo'llari, termin va tushuncha munosabati kabilar ham tilshunoslikdagi asosiy masalalaridan biriga aylangan.

О‘zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyotga erishishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, milliy-madaniy qadriyatlarning tiklanishiga o‘z ijobiy ta‘sirini ko‘rsatdi. O‘zbek tili leksikasining boyishi va rivojlanishi ham istiqlol yaratgan imkoniyatlar bilan bog‘liq bo‘ldi. Shuning barobarida o‘zbek tilshunosligida ham tilimizning turkona tabiatini aniqlashga yo‘naltirilgan qator tadqiqotlar bajarildi. O‘zbek tilshunoslari terminologiyani tartibga solish, o‘zbek tilidagi turli soha terminlarini izohlash, o‘zbekcha termin yasash usullarini ishlab chiqish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Shu bilan bir qatorda, tilshunoslikning taraqqiy etib borishi bilan uning terminologiyasida ham tadqiq qilinishi zarur bo‘lgan muammolar kelib chiqadi. Ana shunday masalalardan biri o‘zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyotini umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining «Ona tili» darsliklari misolida aniqlashdir.

Tilshunoslik terminlari shakllanishining ilk bosqichida qo‘llangan terminlar evolyutsiyasida turli holatlarni kuzatish mumkin. Ba‘zi terminlar til hodisasining mohiyatini to‘la va to‘g‘ri qayd eta olmaganligi tufayli iste‘moldan chiqqan bo‘lsa, ba‘zilari keyinchalik muqobillarining yaratilishida asos bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, kelishiklarning alohida kategoriya ekanligi haqida 20-yillar o‘zbek tilshunosligida aniq shakllangan tasavvur bo‘lmagan. Shu sababli ular maxsus yoritilmay, «belgilar» turkumi ichida sanab o‘tilavergan. Hozirgi o‘zbek tilshunosligi terminologiyasida mavjud bo‘lgan kelishiklar deb yuritiluvchi paradigma «Sarf»da *qarash belgisi* (qaratqich kelishigi), *tushma belgisi* (tushum kelishigi), *borish belgisi* (jo‘nalish kelishigi), *chiqish belgisi* (chiqish kelishigi), *o‘rin belgisi* (o‘rin-payt kelishigi) terminlari asosida shakllanganiga shubha yo‘q. Bu terminlar hozirgi kunda bir oz o‘zgarishga uchragan bo‘lsa ham, umuman, lisoniy tushuncha mohiyatiga to‘la mos keladi. Ularning quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga, mukammallikka prinsipi asosida shakllanishini nazarda tutadigan bo‘lsak, lisoniy tushunchalarni anglata olish darajasiga ko‘ra tilshunoslik terminlari asta-sekin barqarorlashib borgan. Har bir termin tushunchani nechog‘li ifodalashidan kelib chiqib, dastlab variant sifatida paydo bo‘lgan. Keyinchalik tushunchani to‘liq va aniq anglata olgan terminlar ilmiy muomalada qolgan, boshqalari iste‘moldan chiqib ketgan. Buni *suffiks* - *qo‘shimcha*, *fonema* - *tovush*, *so‘z organlari* - *nutq a‘zolari*, *logik urg‘u*- *so‘z urg‘usi*, *egallik kelishigi* - *qaratkich kelishigi* kabi terminlar juftligida ko‘rish mumkin.

Ko‘plab arabcha tilshunoslik terminlari 20-yillarga kelib o‘zbekcha terminlar bilan almashtirilgan. Ayrim arabcha terminlarga ehtiyoj bo‘lmaganligi sababli iste‘moldan chiqib ketgan. Shunday bo‘lsa-da, amaldagi darsliklarda *ibora*, *imlo*, *inkor*, *lug‘at*, *me‘yor*, *nutq*, *nuqta*, *sifat*, *fe‘l*, *zamon* kabi arabcha tilshunoslik terminlari qo‘llanilmoqda.

40-yillar darsliklaridagi terminlar o'zbek tilshunoslik terminologiyasining keyingi taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Bu davrda arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan ko'plab tilshunoslik terminlari o'zlashtirilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida yaratilgan «Ona tili» darsliklarida boshqa terminologik tizimlardagidek bir lisoniy tushunchani turli terminlar bilan atalayotganligi ayon bo'ldi. Bu holat darslik mualliflarining boshqa-boshqa ekanligi bilan izohlanadi. Bu, o'z navbatida, tilshunoslik terminologiyasida sinonimiyani vujudga keltirdi. Hozirgi «Ona tili» darsliklarida qo'llangan terminlar hodisa mohiyatini to'la qamrab olganligi va ilmiyligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. - Т.: Фан, 1996.
2. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010;
3. Ҳожиёв А. Ўзбек тилшунослик терминологиясининг ҳозирги аҳволи ҳақида / Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. Республика терминология конференцияси материаллари. - Т.: Фан, 1986. - Б.
3. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1985;
4. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002;
5. Ҳожиёв А., Решетова Л. Ўзбек тили грамматик терминларининг қисқача изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1980